

## MAKTAB O'QUVCHILARIDA KASBIY LAYOQATNI SHAKLLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ibragimova Zilola -Hazorasp tumani 51-son maktab psixologi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida kasbiy laoyqatni shakllanishi jarayonida psixologik xususiyatlarning ahamiyati tahlil qilinadi. O'quvchilarning kasbiy yo'nalishini belgilashda ularning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik omillari muhim rol o'ynaydi. Maqolada yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyalari va shaxsiy xususiyatlari kasbiy laoyqatni qanday shakllantirishiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maktab ta'limi jarayonida psixologik yondashuvlar va metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash mumkinligi ko'rsatilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy laoyqat, Maktab o'quvchilari, Psixologik xususiyatlar, Shaxsiy qobiliyatlar, Motivatsiya, Ta'lim jarayoni, Qiziqishlar, Ijtimoiy omillar

### Абстрактный

В данной статье анализируется значение психологических особенностей в процессе формирования профессиональной компетентности школьников. Личностные, социальные и психологические факторы играют важную роль в определении профессионального направления студентов. В статье акцентируется внимание на том, как интересы, способности, мотивация и личностные особенности молодежи формируют профессиональную компетентность. Также показано, что улучшить профессиональную подготовку учащихся можно путем применения психологических подходов и методов в процессе школьного образования.

**Ключевые слова:** Профессиональные способности, Школьники, Психологические характеристики, Личностные способности, Мотивация, Учебный процесс, Интересы, Социальные факторы.

### Abstract

This article analyzes the importance of psychological characteristics in the process of formation of professional competence in schoolchildren. Personal, social and psychological factors play an important role in determining the professional direction of students. The article focuses on how the interests, abilities, motivations and personal characteristics of young people shape professional competence. It is also shown that it is possible to improve the professional training of students by applying psychological approaches and methods in the process of school education.

**Key words:** Vocational ability, School students, Psychological characteristics, Personal abilities, Motivation, Educational process, Interests, Social factors

O'quvchilardagi kasb-hunarga bo'lgan qiziqish erta uyg'onishini turli fanlar o'z amaliy tadqiqotlarida isbotlab bergan bo'lsada, lekin kasbni egallashga nisbatan ishonch qachon shakllanishi masalasi hamon aniq yechimiga ega emasligini ta'kidlashimiz joizdir. Kasb-hunar egallashga ishonchning shakllanishi o'ta murakkab jarayon bo'lib, u har bir o'quvchini layoqati va o'ziga xos ruhiy xususiyatlariga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Kelajagi buyuk davlatimizning asosi bo'lgan o'quvchi avlodni bilimli bo'lishi bilan bir qatorda kasb-hunarni egallashga alohida e'tibor berilishiga sabab o'quvchilarni har tomonlama barkamol inson sifatida jamiyat a'zosiga aylanishidir. Kasb hunar egalashda asosiy omillardan birisi bu motivatsiyadir. Ma'lum bir kasbda faoliyat ko'rsatishni boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. O'smirlik davrining oxirlari va o'spirinlik o'quvchiiga kelib, ularda mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Har qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi, avvalo, o'spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. SHuning uchun ham bu davrdagi o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Bu o'quvchidagi bolalar uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo'nalishlari bo'yicha mashhul bo'lmagan o'spirinlargina ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu o'quvchidagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug'ullana oladilar. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun sezitiv davr deb hisoblash mumkin. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati, emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Umuman o'quvchilarda o'ziga ishonchni shakllanishi bu aqliy saloxiyatini ortishi bilan birga faoliyatining yo'nalganligini aniqligi va hissiyotlarni boshqara olishi asnosida jamiyatda o'z mavqega ega bo'lishini asosi deb baxolash mumkin. Kasb-hunar egallashga layoqati asosida ishonchni shakllanishi esa o'quvchilarning bevosita o'z kelajaklarini ko'ra bilish kabi hususiyatini namoyon etadi. O'zini kelajakda jamiyatdagi o'rnini tassavur eta olgan o'quvchilarni xulq-atvorida ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelib, tabiat va ijtimoiy muxitga bo'lgan munosabat

o'zgarishi tabiiydir. Yana shuni ham aloxida takidlash joizki kasb-hunar egallashga ishonchni shakllanishi o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy bilimlarni egallashga bo'lgan munosabati tubdan o'zgartirib yangi bilimlarni egallashga bo'lgan maylni ortishiga sabab bo'ladi. Bu xolat o'z navbatida o'quvchilarning qobiliyati va yashirin imkoniyatlarini namoyon bo'lishiga turtki rolini o'ynaydi.

Yuqoridagi bosqichlarni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilarni kasbiy layoqatiga ishonchini shakllanishining psixologik asoslarini pedagog va ishlab chiqarish ustalari to'g'ri baholay olishlari lozim bo'ladi. Buning uchun esa avval "layoqat" va "ishonch"ni psixik xodisa sifatida namoyon bo'lishini chuqur bilishlari maqsadga muvofiqdir. E.G'.G'oziyev takidlashlaricha "Layoqat qobiliyatni tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Layoqat deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'lakdigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlariga aytiladi. Insonlarning kasbiy qobiliyati ular layoqatlarining rivojlanishi mahsulidir" (E. G'. G'oziyev).

O'z layoqatiga ishonch shaxsning muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak yo'sinda umumlashgan tayyorgarlik holati, yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas jabhasi hisoblanadi. O'quvchilarning o'z layoqatiga ishonishi bevosita xarakter xislatiga va xulq-atvoriga bog'liq bo'lib, u xohish,niyat, orzu, fantaziya kabi shakllarga aylantirish tufayli anglanadi. Bunday shakldagi layoqatga ishonch o'quvchilarda mavjud bo'lishi ularning yaqin va uzoq kelajakka intilishlari garovi xisoblanadi.

O'quvchilarning o'z kasbiy layoqatiga ishonchini shakllantirishning psixologik asosini:avvalom bor o'zining irodasi, bilish jarayonlari, o'ziga xos bo'lgan hususiyatlari, ruhiy xolatlarini boshqara olishi, ruhiy xususiyatlari keyin esa uni qurshab turgan ijtimoiy muhit hamda amaliy jihatdan bilimlarni bevosita egallashga zarur maxsus laboratoriya asbob anjomlari va nazariy uslubiy qo'llashlar tashkil etadi. Sanab o'tilgan omillardan birontasi kam bo'lsa ham o'quvchilarda kasbiy layoqatga ishonchini sustlashiga sabab bo'lishi mumkin. Kasbiy layoqati mavjudligiga ishonch shakllanadi qachonki o'quvchilarda o'z ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baxolay olsalar. Lekin aksari xollarda o'quvchilar o'zlariga yuqori baxo berib, kasb tanlashda adashadilar. Shu kabi adashishlarni oldini olish uchun kasb tanlash bo'sag'asida turgan o'quvchilarga, kasb shaxsdan talab etadigan ruhiy hususiyatlar va shaxsni o'ziga xos bo'lgan hususiyatlari haqida ko'proq ma'lumotlar berish kerak bo'ladi.

O'quvchilarni kasbiy layoqatiga ishonchi rivojlanib qobiliyat sifatida namoyon bo'lishi uchun ulardagi irodaning qay darajada shakllanganligi katta ahamiyatga egadir. Kasb-hunarni egallash uchun sabr toqat bilan o'qish va tinimsiz xalol mexnat

qilishni mohiyatini to'g'ri tushuntirish orqali o'quvchilarni irodaviy kuchini ongli maqsadga yo'naltirilishi mumkin.

**Foydanilgan adabiyotlar.**

1. Платонов К.К. Научная организация Ergashev P. "Pedagog – psixologlarni kasbiy zo'riqish masalalari (talqinida)" Psixologiya asostiatsiyasini anjuman materiallari. T., 2008y
2. Немов Р.С. Психология: Пособие для учащихся.- М.: Просвещение 1995 .психология труда. М., 2001.
3. Qo'chqarova M. Mexnat sostialogiyasi. Ma'ruzalar matni. Farg'ona. 2002.

